



MAMLAKAT TASHQI QARZINI YENGILLATISHDA ZAMONAVIY YECHIMLAR: DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK VA ISLOM MOLIYASI

Matkarimov Ulug'bek

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston va bir qator mamlakatlarning tashqi qarzi tahlili borasida so'z boradi. Ushbu tahlil asnosida tashqi qarz yukini yengilashning bir qancha yechimlari, jumladan Islom moliyasi va davlat-xususiy sherikchilik tamoyillari keltirilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, mamlakat tashqi qarzi, davlat-xususiy sherikchilik, islom moliyasi, sukuk, muzoraba

Kirish. Davlat qarzi — davlatning aholi, firma, tashkilot, banklar, xorijiy moliya-kredit muassasalari oldidagi qarz majburiyatlari hisoblanadi. Davlat o'z daromadlari bilan xarajatlarini qoplay olmay qolganda byudjet taqchilligi- defitsit yuzaga keladi va u qarz jalb qilish yo'li bilan qoplanadi. Davlat qarzni turli qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar, zayomlar chiqarib sotish, moliya instituti (bank)dan ssuda olish va boshqa turli yo'llar bilan olinadi. Moliyaviy va real sektor uchun jalb qilingan investitsiya davlat qarzi deb hisoblanmaydi. Davlat qarzining to'lov davri va muddatiga ko'ra qisqa va uzoq muddatli, tarkiban esa ichki qarz (davlat mamlakatning o'zidagi iqtisodiy sub'yektlardan qarzdor bo'lgan holda) va tashqi qarz (xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqalardan qarzdorlik) kabi turlari bor. Ichki qarz va uning protsentlari milliy valyutada, tashqi qarz va uning foizlari esa erkin almashtiriladigan boshqa bir xalqaro valyutada to'lanadi. Davlat qarzining darajasi, ya'ni qarz yuki qarz va uning foiz summasi yig'indisini davlat byudjeti summasiga nisbati bilan o'lchanadi, ya'ni to'lov majburiyati byudjetning qancha qismiga teng ekanligi bilan belgilanadi. Davlat qarzining haddan tashqari



ortib ketishi iqtisodiyotni izdan chiqaradi, xalq turmush darajasini pasaytiradi (chunki qarzni to‘lash uchun zarur pul byudjetda soliqlarni oshirish orqali to‘planadi), mamlakatdagi iqtisodiy faollikni susaytiradi. Tashqi qarzning ko‘payib ketishi milliy mustaqillikka tahdid soladi, undan qutulishi uchun milliy iqtisodiyotni yuksaltirishga ketadigan investitsiyalarni qisqartirish va hatto milliy boylkning bir qismini xorijga sotishga ham to‘g‘ri keladi. Vaqtida to‘lanmagan tashqi qarzga qo‘shimcha foiz to‘lanadi, undiriladigan foiz qarzga qo‘shilib, uning miqdori yanada oshadi.

Tashqi qarz, agar to‘g‘ri yo‘naltirilsa, barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi. Shuning uchun jalb qilinadigan resurslarni oqilona boshqarish, loyihalarni puxta tanlash, qarz olish va kreditlash amaliyotini yaxshilash hamda bu sohalarda shaffoflikni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda tashqi qarz davlat tashqi qarzi hamda xususiy sektor tashqi qarziga bo‘linadi. Davlat tashqi qarzi – hukumat tomonidan jalb qilingan yoki uning kafolati ostida olingan tashqi qarzlar. Xususiy sektor tashqi qarzi, o‘z navbatida, davlat majburiyat olmagan qarzlardir.

O‘zbekiston va bir qator mamalakatlar tashqi qarzi tahlili

Argentinaning iqtisodiy muammolari siyosiy beqarorlik, iqtisodiy noto‘g‘ri boshqaruv, valyuta inqirozlari va xomashyo narxlarining o‘zgaruvchanligi kabi omillarning kombinatsiyasidan kelib chiqadi. Yuqori inflyasiya, valyuta qadrsizlanishi va daromadlar tengsizligi kabi tarkibiy muammolar mamlakatning qarz muammolarini yanada kuchaytirgan. Xalqaro valyuta jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, bu mamlakatda haqiqiy byudjet taqchilligi YAIMning 10 foizini tashkil qiladi, davlat qarzi 400 milliard dollardan oshgan, bu nominal YAIMning 80 foizidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi.

Gretsiyada davlatning haddan tashqari ko‘p, maqsadsiz, puxta o‘ylanmagan xarajatlari (byudjet sarflari), soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashlar, korrupsiya va iqtisodiy noto‘g‘ri boshqaruv qarz inqirozini kuchaytirdi. Byudjet-soliq



intizomining zaifligi, davlat qarzining barqaror bo‘lmagan darajasi va tarkibiy islohotlarning yo‘qligi mamlakatning iqtisodiy muammolarini ko‘paytirgan.

Umumiy olganda, qarz yukining noo‘rin kuchayishi odatda barqaror bo‘lmagan qarz olish amaliyoti, noto‘g‘ri moliyaviy intizom va tizimli boshqaruv kamchiliklari, qonun ustuvorligining ta‘minlanmasligi hamda yuqori korrupsiya kabi nosog‘lom holatlar tufayli yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi qarzi yildan yilga ortib borayotgani sir emas. 2023 yilning yakuni bo‘yicha O‘zbekistonning tashqi qarzi 29 mlrd 636 mln dollarni tashkil etgan edi. 2024 yilda jalb etilgan kreditlarni hisobga olganda, qarz miqdori 30 milliard dollardan oshgan. Joriy holat o‘ta xatarli deb baholanmasa-da, xavf-xatarlar yetarlicha (yuqorida keltirilgan misollarga o‘xshash). Bu esa inklyuzivlikni ta‘minlovchi innovasion va alternativ yechimlarni talab qiladi. Muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini o‘rganish va ularni joriy etish bo‘yicha mamlakatimizda so‘nggi yillarda islohotlar amalga oshirilmoqda, ammo bu kam.

Xulosa va takliflar

Tashqi qarzning kamayishida va kambag‘allikka qarshi kurashishda Islom moliyasining dunyo moliya bozoridagi o‘rni yildan yilga ortib bormoqda. Shu boisdan qo‘shimcha muqobil moliyalashtirish sifatida, islomiy moliya vositalariga asoslangan davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) tizimi orqali infratuzilmalarni innovasion moliyalashtirish yechimini taklif qilish mumkin. DXSH – qarzni kamaytirish uchun katalizator.

Davlat-xususiy sheriklik – davlat loyihalarini moliyalashtirish va boshqarish uchun davlat tashkilotlari va xususiy korxonalarni birlashtiradigan hamkorlik bo‘lib, bunday sheriklik davlatning tashqi qarzga bo‘lgan talabini kamaytiradi. Yurtimizda davlat-xususiy sherikchilik asosida bir qator muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirila boshlandi. Misol uchun, Masdar (BAA) kompaniyasi bilan davlat-xususiy sheriklik asosida qayta tiklanadigan manbalardan elektr energiyasi ishlab



chiqarishga ixtisoslashgan quvvatlarni o'z ichiga olgan bir nechta loyihalar amalga oshirilmoqda.

Islom moliyasining axloqiy tamoyillarga sodiqligi, boyligni qayta taqsimlashga e'tibor qaratishi, asosiy vositalar bilan ta'minlangani, tavakkalchilikni adekvat taqsimlashga e'tibor qaratishi va real iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishi uning kengroq manfaatlariga xizmat qiluvchi va inklyuzivlikni ta'minlaydigan moliyaviy tizim ekanini anglatadi. Shu boisdan ham, Islom moliyasi vositalari qator davlatlarda DXSH loyihalarining samarali ishga tushishida keng qo'llanmoqda. Jahon bankining 2017-yildagi "Infratuzilma borasidagi davlat-xususiy sheriklikka islomiy moliyalashtirishni tatbiq etish" nomli hisobotida Islom moliyasi vositalaridan infratuzilma DXSHlarini moliyalashtirishda keng foydalanish mumkinligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. DXSH sohasida islomiy moliya vositalari shariatga muvofiq moliyalashtirish tizimini shakllantiruvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bu vositalar mushoraka (qo'shma korxonalar), muzoraba (shariklik), ijara (lizing), sukuk (Islom obligatsiyalari), muzoraba sukuk, istisna va takafulni (islomiy sug'urta) o'z ichiga oladi. Mushoraka va muzoraba doirasida foydani taqsimlash shartnomalari davlat organlari va xususiy sektor vakillari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydi, ijara esa aktivlarni ijaraga berish jarayonini osonlashtiradi, Islomiy obligatsiyalar sifatida xizmat qiluvchi sukuk investorlarga infratuzilma korxonalarini qo'llab-quvvatlash va loyiha daromadlaridan daromad olish imkonini beradi. Istisna shartnomalari oldindan kelishilgan shartlar asosida aktivlarni qurish va rivojlantirishni qulaylashtiradi. Takaful orqali loyihalarni amalga oshirishda tegishli moliyaviy xatarlar oldini olishda foydalanish mumkin. Qo'shimcha ravishda, Islom ijtimoiy moliyasi bo'lmish naqd pul vaqfini sukuk tamoyillari bilan mujassamlashtirgan moliyaviy instrumentlar ham ijtimoiy ahamiyatga molik ko'plab loyihalarni moliyalashtirishi mumkin.



Masalan, 2008 yilda Malaysia Airports Holdings Berhad (MAHB) turkiyalik hamkorlar bilan Istanbuldagi Sabiha Gökçen xalqaro aeroportini kengaytirish va ishlatish uchun qo'shma korxonaga tuzgan bo'lib, loyihani moliyalashtirish islomiy moliya tamoyillariga asoslangan. Moliyalashtirishda islom banklari va sukuk (islom obligatsiyalari) emissiyasidan foydalanilgan.

Xuddi shuningdek, MAHB Kuala-Lumpur xalqaro aeroportini rivojlantirish va yangi ob'ektlarni qurish uchun zarur mablag'larni xususiy sektordan islomiy moliya tamoyillari asosida jalb qilgan. Bunda, Malayziya suveren fondiga tegishli kompaniya aeroport ob'ektlarini xususiy sektordagi hamkorlardan ma'lum muddatga ijaraga olgan. Islom moliyasining to'la-to'kis amaliyotda joriy etilishi va an'anaviy moliyaviy tizim bilan teng shartlar asosida raqobatga kira olishi uchun birinchi navbatda huquqiy baza yaratilishi zarur. Islom moliyasi bo'yicha qonun loyihalarida soliqqa tortish jihatlariga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

References

1. Javlon Umarov. Azon.uz
2. Ahmed, S. (1989), Islamic Banking and Finance, Journal of Monetary Economics, Vol 24, pp. 157-167.
3. Blitz, R. and Long, M. (1965), The Economics of Usury Regulation. Journal of Political Economy, Dec., pp. 608-619
4. Akhmadjonov, A Abdullayev, A Abdupattayev. (2021). ISLAMIC BANKING MANAGEMENT, ASSETS AND LIABILITIES. Scientific progress, 2(6)1525-1532.
5. Iskander Tursunov. <https://kun.uz/news/2024/05/20/islam-moliyasi-vositalari-tashqi-karz-yokuni-yoli>



6. M Mamadjonov, A Abdullayev, I Abdurakhmonov, A Mamadaliyev. (2021) CHALLENGES OF MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scientific progress, 2 (6), 1533-1537.

7. M.M. Tojiyeva, A.A. Abdullayev. (2021). THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN STATISTICAL DATA COLLECTION. Asian Journal of Multidimensional Research 10 (12), 250-254.

8. O Akhmadjonov, A Abdullaev, B Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). CHARACTERISTICS OF ISLAMIC FINANCE. Scientific progress 2 (8), 634-638

9. O. Akhmadjonov, A. Abdullaev, S. Yusupov, J. Anvarov. (2021). DANGER IN ISLAMIC BANKING. Scientific progress 2 (8), 639-642

10. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Karimova, F Solijonova. (2022). World trade organization management system. Scientific progress 3 (2), 343-347.

11. O Akhmadjonov, A Abdullaev, J Anvarov, S Ismailov. (2022). ISLAM FINANCE. Scientific progress 3 (2), 45-47.

12. O Akhmadjonov, A Abdullaev, M Shamsiddinov, B Umarjonov. (2022). ISLAMIC FINANCE. Scientific progress 3 (2), 48-50